

ОYBEK UY MUZEYINING FAOLIYATI

Yunusov Arman Fayzulla o‘g‘li

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va
dizayn institute Muzeyshunoslik : muzey menejmenti
va madaniy turizm yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya . Mazkur maqola o‘zbek adabiyotining rivojiga salmoqli hissa qushgan ulug‘ adib, shoir, olim, jamoat arbobi Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek hayoti ,ijodiga va shoir uchun tashkil etilgan uy muzeyi faoliyati bilan yaqindan tanishish , tahlil qilish va tadqiq qilishga bag’ishlanadi.

Kalit so’zlar: muzey , shoir , muzey faoliyati ,asarlar .

■XX asr o‘zbek adabiyotining rivojiga salmoqli hissa qushgan ulug‘ adib, shoir, olim, jamoat arbobi Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek 1905 yil 10 yanvarda Toshkent shahrida bo‘zchi oilasida dunyoga keldi. Oldin o‘rta maktabda, 1922—1925 yillarda esa Toshkent ta’lim va tarbiya texnikumida ta’lim oldi. So‘ngra O‘rta Osiyo Davlat dorilfununing ijtimoiy fanlar fakultetida tahsil ko‘rdi. 1930 yili O‘rta Osiyo Davlat dorilfununini tugatib, oliy maktablarda siyosiy iqtisoddan dars berdi. Oybek iste’dodli shoir, yirik nosir bo‘libgina qolmay, mashhur olim, publitsist, tanqidchi va tarjimon, davlat va jamoat arbobi hamdir. O‘zbek kitobxoni Pushkinning «Yevgeniy Onegin» she’riy romani, Lermontovning «Maskarad», Molerning «Tartyuf» dramalari, shuningdek, antik adabiyoti namunalarini Oybek tarjimasida o‘qishga muyassar bo‘lgan. 1922 yildan unrining oxirigacha Oybek she'r, dostonlar yozdi. “Onamning mozorida” (1924), “Ovchiga” (1924), “Yoshlik xotiralaridan” (1925), “Gunafsha” (1927) singari she’rlarida yosh shoir ruhiyatining holatlari tasvirlanadi. “Fanga yurish” (1930), “Fikr” (1931), “Tansiq” (1935), “Dala yo'lida” (1935), “Qishloq qizi student” (1933), “Brigadir ayol” (1935) singari she’rlarida ijtimoiy hayot aks ettiriladi. Shoir “Dilbar – davr qizi” (1932), “O’ch” (1932), “Navoiy” (1947), “Qizlar” (1947), “Davrim jarohati” (1965) singari poemalar yozgan. Darhaqiqat, u she’riyatda ham, nasrda ham, adabiyot ilmida ham, tarjimada ham yetuk alloma! Oybek lirikas hali adabiyotshunoslikda to‘la kashf etilgan emas. Bu soha — ulkan bir xazina. Bizda tom ma’nodagi realistik intellektual poeziya Oybekdan boshlangan. Uning lirikasi sirtdan tinch, bosiq-vazmin, ammo unda fikrlar, tuyg‘ular gupurib, qulf urib yotadi.[1]

Oybek lirikasini to‘la tushunish, uning bag‘ridagi fikr, his-hayajonni chuqur uqib yetish uchun muayyan ma’noda avtorning darajasiga ko‘tarilish kerak. Birgina «Na’matak» sherini eslaylik. Bu asar, adabiyotshunoslikda ta’kidlanganidek, so‘z sehri bilan qad ko‘targan go‘zallikning tengsiz obidasidir

Namatak

Nafis chayqladi bir tup na'matak
Yuksakda, shamolning belanchagida,
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,
Viqor-la o'shshaygan qoya labida,
Nafis chayqaladi bir tup na'matak...
Mayin raqsiga hech qoniqmas ko'ngil,
Vahshiy toshlarga ham u berar fusun.
So'nmaydi yuzida yorqin tabassum,
Yanoqlarni tutib oltin bo'sa-chun
Quyoshga tutadi bir savat oq gul!
Poyida yig'laydi kumush qor yum-yum...

Oybek barhayot chog“idayoq el-yurt o‘rtasida nafaqat buyuk adib va buyuk inson sifatida mashhur bo‘lgani uchun, xalqona ibora bilan aytganda, yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lgan toshkentliklar ham, poytaxtimizga yaqin va olis yurtlardan kelgan adabiyot muxlislari ham shu xonadonga kelib, o‘zbek adabiyotining bu porloq siyemosini ziyorat qilishni o‘zлari uchun faxr deb hisoblaganlar. Moskva va Kiyev, Tbilisi va Boku, Alma-ota va Ashxobod singari shaharlardan kelgan atoqli yozuvchilar, tarjimonlar va adabiyotshunos olimlar esa bu xonadonda Oybek bilan bo‘lib o‘tgan suhbatlarni hayotlarining unutilmas daqiqalari sifatida yod etib yashaganlar. Oybek uy-muzeyi adib tug‘ilgan kunning 75 yilligi munosabati bilan 1980 yilda barpo etilgan. Muzey ikki qismidan iborat bo‘lib, 1940-1941 yillarda qurilgan 5 xonali binodan adibning hayot va ijod yo‘lini aks ettiruvchi ekspozitsiya o‘rin olgan. Hovlining shimoliy tarafidagi binoda esa memorial xonalar: mehmonxona, ijodxona (birinchi qavatda), bolalar xonasi va yotoqxona (ikkinchi qavatda) joylashgan. Ikkinchi qavatga dahlizdagi yog‘och zinalar osha, devorlardagi A.Siglinsev ishlagan gravyuralarni tomosha qilib, chiqiladi. Tashrifchilar katta darvozadan o‘tib, ichkariga kirganlaridan so‘ng, so‘l tomondagi bir zamonlar terrasa (ayvon) bo‘lib xizmat qilgan xonada Oybek uy-muzeyining ekspozitsiyasi bilan tanisha boshlaydilar. 5 xonadan iborat bu qismga kiraverishda, o‘ng tomonda mo‘jazgina bir xona bor. Unda adibning rafiqasi, birinchi o‘zbek rassom qizi va birinchi o‘zbek kimyogar olimasi Zarifa Saidnosirova va uning otasi – mashhur ma’rifatparvar va tadbirkor Saidnosir Mirjalilovga oid eksponatlar: rasmlar, hujjatlar, buyumlar, kartinalar namoyish etilgan. Xonaning bir chekkasida – molbert. U O‘zbekiston xalq rassomi O‘rol Tansiqboyevdan yodgorlik.Zarifaxonim u bilan birga buyuk rus rassomi Ilya Repinning shogirdi N.N.Rozanov studiyasida tasviriy san’at “sir”larini o‘rgangan. [2]

Ikkinchchi xona sizni Oybekning 30 – 40-yillardagi hayoti va ijodi bilan oshno etadi. U shu yillarda Navoiy va Pushkin ijod buloqlaridan hovuchlab suv ichdi. Navoiyga bag‘ishlab she’r va ilmiy maqolalar yozdi, Pushkining “Yevgeniy Onegin” she’riy romanini birinchi bo‘lib O‘rta Osiyo xalqlaridan birining tiliga tarjima qildi. yilning dahshatli bo‘roni gurlaganda, u Cho‘lponning “dum”i, Turkiston Muxtoriyat hukumatining xazinachisi S.Mirjalilovning kuyovi sifatida qoralanib, Yozuvchilar uyushmasidan ham, Til va adabiyot institutidan ham haydaldi. Shunday xatarli zamonda, oilasi bilan goho-goho bir burda nonga zor bo‘lib yashaganiga qaramay, “Qutlug“ qon” romanini yaratdi. Xona o‘rtasidagi to‘rt qirrali vitrinadan kulib turgan turli tillardagi kitoblar “Qutlug“ qon”ning jahon adabiyoti durdonalaridan biri bo‘lganidan shahodat beradi. Uchinchi zaldagi ekspozitsiya markazida Navoiy mavzui turadi. Oybekning ulug‘ shoir haqidagi o‘lmas asari garchand urush yillarida yozib tugallangan bo‘lsa-da, uning xalqaro e’tibor va shuhrat qozonishi urushdan keyingi davrga oid. Nufuzli davlat mukofotigga sazovor bo‘lgan bu asar turli xorijiy tillarga tarjima qilinib, jahon xalqlarining ulug‘ o‘zbek yozuvchisi bilan yaqindan tanishishlarida muhim ahamiyatga molik bo‘ldi. Shu xonaga kirgan tashrifchi “Navoiy” romanining tikanli simlar ortida turgan yirtilgan-yamalgan bir nusxasiga e’tibor bermay qolmaydi. Bu, sobiq o‘zbek harbiy asirlarining Oybek uy-muzeyiga sovg‘asi. Sovet davlati rahbarlarining qo‘pol xatosi bilan zaiflashtirilgan qizil armiya urushning dastlabki yillarida ko‘plab shaharlar bilan birga butun boshli diviziyalarni ham dushmanga boy bergen. Urush tugashi bilan kechagi asirlar endi sovetlar tomonidan qamoqqa olinib, “Vatan xoinlari” deb e’lon qilingan. Urushning so‘nggi kunlarida “Navoiy” romanini o‘qib, uni ko‘zi surtgan sobiq asirlardan biri uni o‘zi bilan birga lagerma-lager olib yurgan, nazoratchilar kitobni otib-ulоqtirib tashlaganlariga qaramay, uni do‘srtlari bilan birga ko‘z qorachig‘idek saqlagan. Hayotbaxsh g‘oyalari bilan sug‘orilgan, har bir lavhasidan o‘zbek diyori shabadalari esib turgan bu roman ularga ruhiy madad va kuch bergen. [3]

Afsuski, 50-yillar avvalida boshlangan qatag‘onning yangi to‘lqini yana Oybekni o‘z girdobiga torta boshladи. Raqiblar hatto “Navoiy” romanidan ham siyosiy xatolarni izlab topadilar. Ekspozitsiyadagi gazeta maqolalari, suratlar, hujjatlar shu haqda naql qiladi. Buyuk adibning oyoqlari ostidagi zamin kundan-kunga o‘pirila boshlaydi. Shunday iztirobli, azob-uqubatli kunlarning birida u insult xastaligiga duchor bo‘ladi. Tili so‘zlash, qo‘li ishslash quvvatini yo‘qotadi. Zarifaxonimshu yillarda butun kuchini Oybekni qayta oyoqqa qo‘yishga qaratdi. Oybek Xitoyga davolanish uchun borganida mana bu yog‘och qilichlarni Xitoy shifokorlari berishgan. U shu qilichlar bilan qo‘l muskullarini harakatga keltirishga uringan. To‘rtinchi zalda adibning o‘zbek va rus tillaridagi ko‘p jildlik nashrlari, shuningdek, ayrim asarlarining so‘nggi yillarda xorijda nashr qilingan nusxalari namoyish qilingan. Bundan tashqari, adibning tasviri

tushirilgan, go‘zal misralari bitilgan sopol va chinni idishlar, misdan ishlangan buyumlar.. Oybekka bag‘ishlangan badiiy, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar...

Oybek jamoatchilik ishlarida ko‘p qatnashgan, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a’zosi, SSSR orden va medallari bilan mukofotlangan, xususan, Lenin ordeni bilan. Oybek 1968 yil vafot etgan va Chig‘atoy qabristoniga dafn qilingan.

Har yili 10 yanvar sanasida Oybekning uy-muzeyida uni bilgan, tanigan, hurmatlagan, o`ziga do`st, ustoz deb bilganlar, oybekshunos olimlar yig`ilishib, uni yod etishadi.Turli universitetlardan ham talabalar tashrif buyurishib ,esdalikka rasmga tushib ketishadi. Bu muzeyni ko‘rish uchun hatto chet eldan mehmonlar tashrif buyurishadi .Masalan : Nyu Yorklik yozuvchi Ket Tang bu muzeyga tashrif buyurib yetarli malumotlar oldi va Jomiyning 15-asrga oid devonini qo’liga olib ,bexad shodlandi. Muzeyda shuningdek ,tashkiliy ishlar , tadbirlar yaxshi olib borilmoqda. Oybek xotirasiga Toshkent metropoliteni stansiyasi nomlangan. Oybekning o‘lmas asarlari ma’naviy xazinamizdan mustahkam o‘rin oldi va umumxalq mulki bo‘lib qoldi.Oybek ijodiga qiziquvchilarni shu muzeyga tashrif buyurishlarini taklif qilaman

REFERENCES:

1. Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek | Ulug‘ adib, Shoir, Olim (akademiklar.uz)[1]
2. Oybek (1905-1968) (ziyouz.com)[2]
3. O‘chmagan ovoz, so‘nmagan qon | yoshlikjurnali.uz[3]
4. Bosh sahifa (meros.uz)